

ZONOMIK FRAZEOLOGIZMLARNING OG'ZAKI NUTQ VA TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

Axmedov Xusan Azimjon o'g'li
ISFT instituti Xorijiy filologiya
kafedrasi o'qituvchisi

Ushbu maqolada zonomik frazeologizmlarning o'zbek xalq og'zaki nutqidagi o'rni va uning tilshunoslikdagi o'rganilish darajasiga to'xtalib o'tilgan. Fransuz va o'zbek tilidagi zonomik frazeologizmlarning bir xil ma'noda tarjima muqobillarining aniqlanishi tilshunoslikning rivojlanishiga, ularning tahlili esa frazeologizmlarning tildagi beqiyos o'rnini ko'rsatadi. Hayvonlar ramziy ma'no kasb etgan holda bu tilda so'zlashuvchilarning tajribasini aks ettiruvchi ma'lum bir insoniy fazilatlarining mos lisoniy belgilaridan biri hisoblanadi. Odamlarning harakteri, xatti-harakterini ifodalashda og'zaki nutqimizda biz zonomik iboralardan juda ko'p va o'z o'rnida foydalanishimiz bu bizning nutq boyligimizni ifodalaydi.

Kalit so'zlar: zonomik birlik, Frazemada, frazeologizmlarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy va funksional-pragmatik jihatdan o'rganish, obrazga egalik, leksiksemantik guruh.

В данной статье основное внимание уделяется роли зоономической фразеологии в узбекской народной речи и уровню ее изученности в лингвистике. Выявление однозначных по смыслу вариантов перевода зоономической фразеологии на французском и узбекском языках способствует развитию языкознания и их анализу. Ни с чем не сравнимое место фразеологизмов в языке. Животные являются одними из соответствующих языковых знаков определенных человеческих качеств, отражающих опыт носителей этого языка, приобретающих символическое значение. В нашей устной речи мы используем множество зоономических выражений, выражающих характер и поведение людей, и в этом проявляется наше речевое богатство.

Ключевые слова: зоономическое единство, фраземада, структурно-грамматическое, семантико-методическое и функционально-прагматическое изучение frazeologizmov, образность владения, лексико-семантическая группа.

O'zbek tilining qo'llanishida frazeologizmlar ya'ni iboralar juda ham katta rol o'ynaydi. Kishilarning nutq jarayonida turli frazeologizmlar qo'llashi uning badiiy kitoblarni ko'p mutolaa qilishidan dalolat beradi. Ayni vaqtda esa tilimiz o'zida ko'plab iboralarni jam qilganligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi.

Frazeologizmlar ya'ni iboralarga ta'sir ko'rsatuchi omillardan yana bir bu tarjima adabiyot hisoblanadi. Turli tillarda va turli xalqlarga mansub asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ayrim frazeologizmlar ma'lum ma'noda o'zgarishga uchrashi mumkin, shuning uchun ham frazeologizmni tarjima qilish katta mahurat talab etadi. Iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ma'noning buzilishiga olib keladi.

O'zbek tilining naqadar keng ko'lamlilik ekanligi va boyligini isbotlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu frazeologizmlardir.

O'zbek frazeologiya maktabiga taniqli tilshunos Sh.Rahmatullaev asos solgan bo'lib, u tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligi frazeologizmlarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy va funksional-pragmatik jihatdan o'rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishdi, bir qator yangi monografiyalar, risolalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar, frazeologik lug'atlar yaratildi, bir necha nomzodlik dissertatsiyalari hamda doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. So'nggi yillarda frazemalarni lingvokulturologiya, etnolingvistika nuqtai nazarlaridan o'rganish ko'payib bormoqda. Ayniqsa, bu tendensiya boshqa tillar, xususan, qardosh bo'lmagan tillar bilan qiyosan o'rganishga asoslangan. Frazemada ikki va undan ortin leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazemadan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalanitirish uchun xizmat qiladi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi. Frazeologik ma'noning o'ziga xosligi frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazemalarning leksemalar bilan kechadigan sinonimik, antonimik, darajali munosabatlari frazemalararo munosabatlardan farqlidir. Bunda frazeologik ma'noda leksik ma'nodan farqli o'laroq nominatsiya bilan bir qatorda konnotatsiyaning doimiy mavjudligi, obrazga egalik kabilar ahamiyatlidir. Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi Frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda

tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklarga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya'ni Frazeologiyani keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniklash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o'rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo'llanuvchi so'zlar va ularga xos ma'nolarning o'ziga xos xususiyatlarini aniklash; frazeologizmlarning so'z turkumlari bilan o'zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniklash; frazeologik birliklar tarkibida so'zlarning yangi ma'nolari hosil bo'lishini o'rganish va boshqa Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o'rganish, tasniflash va lug'atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan o'ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi.

Frazemaning voqelikka nisbat beriladigan lug'aviy mazmuni (nimanidir anglatishi, ifodalashi) frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, tuyaning kallasiday frazemasini "hajmi odatdagidan ancha katta, yirik" ma'nosini, yurakbag'r(i) qon bo'lib ketdi frazemasini "dil tang bo'lmoq, ziq bo'lmoq" ma'nosini anglatadi: Qovunga qarang. Har biri tuyning kallasiday. Juda saralangan (Oy-bek). Yurak bag'rim qon bo'lib ketdi,.. ertadan beri yolg'iz o'tiribman (Oybek). Frazeologik ma'no tarkibini semik tahlil qilish bilan ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, ta'b(i) xira frazemasini sifatning ruhiy holat bildiruvchi leksiksemantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatning lug'aviy ma'nosi tarkibida "kayfiyat", "his - hayajonning ijobiysalbiyligi", "hishayajonning kuchlikuchsizligi" kabi ideografik semalar ajratiladi. Ana shu semalar asosida yuqoridagi frazemaning ma'nosini kayfiyati biroz yomon holatda deb ta'riflash mumkin.

O'zbek tilida zoonomik frazeologizmlar ham o'z o'rnida beqiyos ishlatiladi. Zoonomik frazeologizmlarning qo'llanilishi inson tashqi ko'rinishi, xatti-harakteri, va holatiga ham qo'llaniladi. Huddi shunday o'zbek tilidagi iboralardan biri "eshshakdek qaysar" iborasi odamning bir gapda turib olishini, o'ta darajada injiq, bir narsa gapda turib oladigan odamlarga nisbatan qo'llaniladi. Huddi shu ibora fransuz tilidagi ham "Têtu comme un âne" iborasi uchraydi, bu ham fransuz tilida qaysar odamga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to'liq to'planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan o'rganilmagan. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig'ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ularni o'zga madaniyat iboralari bilan qiyosiy o'rganish bugungi o'zbek tilshunosligining

kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir. Frazelogizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

Adabiyotlar:

1. Muhiddinov A.G. O`quv jarayonida nutq faoliyati. –Toshkent: O`qituvchi, 1998 yil.
2. Abdulahatova R, Yusupova T, Do'sanov Q. Til ta'limida uzviylik va uzluksizlik. - Toshkent, 2008 yil.
3. Abduraimova M. Ona tili ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent, 2001 yil.
4. Agzamov E. Ona tilidan muammoli dars, " Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 1993 yil 3-4 qo'shma soni. 27-30 betlar.
5. Almamatov T, Yadgarov Q. Almamatova Sh. O'zbek tilini o'qitishda innavatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish. -Toshkent, 2013 y.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi , 2008.
7. Kubasova A. O. Obraznaya xarakteristika cheloveka v rymynskom yazyke cherez sravneniya s jivotnymi i zoometafory (leksiko-semanticheskiy analiz): avtoref. diss. ... k. filol. n. SPb., 2008. 8 s.